

O‘ZBEK TILIM-O‘ZLIGIM

Majidova Shahnoza Komilovna

TerDPI katta o‘qituvchisi

Shodiyeva Maftuna G‘ayrat qizi

TerDPI 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining hozirgi kundagi ahamiyati, rivojlanishi, dunyo miqiyosidagi o‘rni va jozibadorligi haqida bayon etilgan. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va uning respublika hududiga mustaqillikning kirib kelishiga zamin yaratilganligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, qonun, davlat tili, Islom Karimov, A. Avloniy, Mirtemir, ona, bola, tarix .

Bu kurrai zamin osmonda porlab turgan yulduzlar kabi xalqlar ham ko‘p. Har bir xalq o‘z tili, milliy urf-odati, qadriyat va an‘analari, o‘ziga xos tumush tarzi bilan ajralib turadi. Zero, xalqning, millatning o‘zligini anglashi, tarixini namoyon qilishida o‘z “Oliy zaboni” bo‘lmish ona tilining o‘rni beqiyosdir. Anglashimiz lozim bo‘lgan yana bir haqiqat shuki, inson dunyo yuzini ko‘ribdiki, o‘z ona tili bilan ko‘z ochadi, uyg‘onadi, ulg‘ayadi va kamolga yetadi. Shu til bilan yashab o‘tadi. Til inson kamolotida betakror ahamiyat kasb etadi. Ona tili eng ezgu fazilatdir, yuksak tuyg‘ular manbaidir. Inson uchun oliy ne‘mat deb atalmish ona tili har har bir millatning eng asosiy belgilaridan bo‘lib, birinchi prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Ona tili o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar va ajdodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik ustunidir”. O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z ona tilisini sevadi, uni hurmat qiladi va e‘zozlaydi. Chunki aynan shu til orqaligina har qanday millatning qay tarzda yashayotganligini, rivojlanayotganligini, yoki aksincha, orqaga qolayotgan va qashshoqlashib borayotganligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham bejizga: “Til-millat ko‘zgusi”, - deyishmaydi.

1989-yil 21-oktabr “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinib, o‘zbek tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, kabi qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramzlari qatori e‘zoz va ehtiromga sazovor bo‘ldi. Tarixdan ma’lumki, mana bir necha ming yillardan beri ona tilimiz hanuzgacha o‘zining ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. O‘zbek tilining eng ahamiyatli jihati shundaki, u shunday shirali, har bir quloqqa xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Jonajon tilimiz shoir Mirtemir aytganidek, yoshligimizdanoq jon-u

qulog‘imizga singib ketgan. Onalarimiz aytgan allalari-yu, bobo-buvilarimizdan eshitgan ertak, hikoya, rivoyat va masallar orqali yuragimiz tub-tubigacha kirib borgan, o‘z navbatida ona tilimizga, ona vatanimizga muhabbat uyg‘otgan. Milliy tilimizga, ona tilimizga bo‘lgan e‘tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o‘rinda bobolarimiz aytgan purma‘no fikrlarni eslaylik: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakdur”(A. Avloniy). Bu yerda milliy tilni yo‘qotmak millat tilini yo‘qotmakka qiyoslanmoqda. Darhaqiqat tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so‘zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Til-millat ko‘zgusi, ma‘naviyat sarchashmasidir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov bejizga ona tilimizni: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir” deya e‘tirof qilmagan. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar. Yozuvchi va shoirlarimiz ham tilimiz haqida ko‘plab purma‘no hikmatli so‘zlarni aytganlar va tilni turlicha ta‘riflaganlar. Abdulla Oripov o‘zbek tili yo‘qolsa to‘tuga aylanib qolishini, Erkin Vohidov ona tilimiz o‘lmasligini bot-bot ta‘kidlaydi. Rasul Hamzatov esa ona tili yo‘qolsa, hatto o‘limga ham rozi ekanligini qalamga oladi. Ona tilimiz hisoblanmish o‘zbek tilini maqtab, uni madh etib, hattoki shu mavzuda qasidalar yozib, qalam tebratgan shoir-u shoirlarimiz nihoyatda bisyor. Ma’salan qalami o‘tkir shoirimiz Ozod Sharofiddinov “O‘zbek tili nafaqat qadimiy til. U g‘oyatda nafosatga boy til, u har qanday ma‘noni eng inja qatlamlarigacha ochib bera oladigan, o‘zining go‘zalligi bilan odamga zavq-shavq ulasha oladigan, bahri dilini ochib go‘zallik tuyg‘usini qondira oladigan tuyg‘udir”, - deya ta‘riflagan. Bunda shoir o‘zbek tilini tarixdan ma‘lum va qadimiy til ekanligini g‘oyatda go‘zal va nafosatga boy ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Shoirimiz A.Qodiriy esa: “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”- deb aytganlar.

Donolar ona tilidan ayrilishni o‘limga o‘xshatadilar. Chindan ham shunday. Bugun dunyodagi kam sonli xalqlar ham o‘z ona tilisi uchun kurashmoqda. Uning yashab qolishini ta‘minlash uchun bor imkoniyatlarini sarflamoqdalar. Shunday ekan, biz shonli tarix, ulug‘ allomalariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi o‘z davlat tilimizni qadrlash, uni rivojlantirish, nufuzini oshirishdek savobli va xayrli ishlarda hamisha faol bo‘lishimiz lozim.

Ona tili – bu odamlarning bilim olish qobiliyatini oshirishga yordam beradigan juda kuchli vosita. Bolalar ota-onalari bilan ona tili bilan gaplashish orqali ko‘nikmalarni rivojlantiradilar va bu muloqot qobiliyati darsda qatnashish uchun

maktabda yoki institut darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Maktabda o‘qish ona tili qo‘llanilishini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ona tili – bu tarbiyaning muhim jihati, chunki u dunyoni idrok etish va boshqalarga o‘z fikrini ifoda etish imkonini beradi. Chaqaloqlar odatda ko‘rgan yoki eshitganlariga taqlid qilishadi. Bolalar har narsani tez o‘rganadilar, ona tilini ham ular ota onalariga taqlid qilib o‘rganadilar. Ona tilini yaxshi bilish, qo‘shimcha tillarni o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratishga yordam beradi. Shaxsning shaxsiy va madaniy o‘ziga xosligi ona tili tufayli rivojlanadi. O‘z atrofini va tarixini anglab shaxsiy kimligini shakllantirish mumkin. Ona tilini rivojlantirish faqat tilshunoslar, shoir yoki yozuvchi emas, balki shu yurtda yashab shu yurtning changini yutib, suvini ichib, tuzini totib yashayotgan har bir inson vazifasi hisoblanadi. Oddiy dehqon bo‘laylik yoki quruvchi, qaysi soha vakili bo‘lishimizdan qat’iy nazar, davlat tilining rivoji uchun hissa qo‘shish shu vatan, shu xalqqa bo‘lgan farzandlik burchimizdir. Xo‘sh, bu nimadan boshlanadi?! Ona tilimizga hurmat birinchi galda unga hurmat – ehtiromdan boshlanadi. Xalqimizda o‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir degan maqol bor. Endi buni tashqi yozuvlarga tatbiq etadigan bo‘lsak: o‘ynab yozsang ham o‘ylab yoz! Rosti bugun bino va imoratlarimiz yuzidagi peshlavhalarga boqsak, ona tilimizga qanchalik befarq ekanligimizni anglaymiz. Ularni tartibga keltirish uchun bugun maslahatchilar joylarda ish olib borib, tadbirkorlarga aholiga peshlavhalar, axborot matnlari va e‘lonlarni tartibga keltirish borasida tavsiyalar, amaliy yordamlar bermoqdalar. Afsuski, ayrim yurtdoshlarimiz o‘zbekistonlik, shu yurt fuqarosi bo‘la turib bu boradagi islohotlarga panjara ortidan qaramoqdalar. Go‘yoki bu ishlarga ularning aloqasi yo‘q, xuddi ular chet el fuqarosidek! Shu o‘rinda ko‘plab yurtdoshlarimizga, tadbirkorlarga ham mnatdorchilik bildirish lozim. Ularga davlat tili borasidagi ilk tavsiyaning o‘ziyoq yetarli bo‘lib, ertasiga o‘ziga tegishli bino, do‘kon, savdo shaxobchasining peshxonasiga davlat tilida bitilgan chiroyli matnlarni joylashtirmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili insonning mavjud qismi bo‘lib qoladi, chunki u aqlning haqiqiy vositasi deb aytiladi, har bir inson o‘z ona tilida fikr yuritadi. Bugungi kunda ona tilimizning dunyo miqiyosiga kirib borishida va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lishida biz yoshlarning o‘rnimiz beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARINING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, 57(1), 153–157.
2. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 648–653.
3. Majidova Shahnoza Komilovna, Ne‘matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). **FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN**

THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).

4. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
5. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdukarimovna. (2023). Ta'lim jarayonida o'z - o'zini boshqarish va o'z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to'plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
6. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
7. Sahkiba Saidmuradova, & To'lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, 57(1), 147–152.
8. Avriddinov Jobir Musulmon o'g'li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO'DAKIYNING SHE'RIYATI VA TILI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 143–146.
9. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
10. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
11. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 63–75.
12. Nodira Hamidova. (2024). G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA SO'Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. *PEDAGOGS*, 57(1), 139–142.
13. Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 158–160.
14. Nigora Jo'ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA O'XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O'RNI. *PEDAGOGS*, 57(1), 161–167.